

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMASI HAQIDA

*B. Po‘latov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ayrim so‘zlarning o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda duch kelingan qiyinchiliklar va ularning tarjimasi jarayonida ikkala tildagi so‘zlarning tarjima qilinishi bilan bog‘liq bir qancha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xamsa, tarjima, ma‘no, tarixiy atamalar.

doi: <https://doi.org/10.2024/g8raxg95>

Biror bir matnni bir tildan o‘zga bir tilga tarjima qilish jarayonida albatta muayyan bir qiyinchiliklarga duch kelishimiz tabiiy. Chunki badiiy tarjima estetik hamda ma‘nodorlik jihatdan qiymati boshqa tarjimalardan ajralib turadi. Tarjimaning estetik vazifasi so‘zlarni chiroyli, majoziy, obrazli hamda metaforalar v.h. lardan foydalangan holda ifodalanishidir. Shuningdek, tarjimon bir so‘zni ma‘lum bir tilga tarjima qilayotganda o‘zining mahoratini ishga solishi lozim. Albatta, badiiy tarjima nihoyatda qiyin san‘at. Agar tarjimon haqiqiy so‘z ustasi bo‘lmasa, uning tarjimasida nuqsonlar uchrab turadi, Sababi, agar ozgina bo‘lsa ham, so‘zni noto‘g‘ri yoki bo‘lmasa, boshqa bir sinonimini ishlatish holati sodir bo‘ladigan bo‘lsa, u holda ma‘no o‘zgarishi ro‘y berib, yozilgan yoki aytilgan fikrning haqiqiy ma‘nosini o‘quvchi anglay olmaydi.

Biz shu o‘rinda, “Xamsa” asarining eng so‘nggi dostoni “Saddi Iskandariy” dostonidagi ba‘zi so‘zlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishdagi ayrim tavsiyalar haqida fikr yuritmoqchimiz. “Saddi Iskandariy” dostonini nomlanishi o‘zbek tilidagi tarjimasi “Iskandar Devori” deb tarjima qilinadi. Bu doston nomining ingliz tiliga tarjimasi “The wall of Alexander Great” [1], “The iron gate of Alexander the Great” yoki “The Gates of Alexander” ham deyish maqsadga muvofiq [5]. Chunki ko‘p manbalarda shu hol tan olingan, ya‘ni, u yerda ta‘kidlanishicha, afsonaviy Iskandar devori buyuk Aleksandr Makedonskiy tomonidan janubiy o‘lkalarda yashovchi kishilarni Ya‘juj va Ma‘jujlardan himoya qilish uchun qurdirilgan. Shu o‘rinda Ya‘juj va Ma‘jujlarga to‘xtalib o‘tamiz. Zero, bu kabi realiyalar tarjima uchun muhimdir.

Ya‘juj va ma‘juj oxirzamonda dunyoning sharqiy tomonidan er yuziga chiquvchi va er yuzida buzg‘unchilik qilguvchi mahluqlardir. Qur‘oni Karimning “Kahf” va “Anbiyo” suralarida bu haqida oyatlar kelgan. Alloh taolo “Kahf” surasida: “Ular: “Ey, Zulqarnayn, albatta, Ya‘juj va Ma‘juj er yuzida buzgunchilik qilguvchilardir. Biz senga xaroj bersak, biz bilan ularning orasida to‘siq qilib berurmisan?” – dedilar”, degan (94-oyat). Demak, Ya‘juj va Ma‘jujlar buzg‘unchi hamda inson hayotiga xavf soluvchi mahluqlar bo‘lib ularning yer yuzida paydo bo‘lishi oxirzamonning belgilaridan biridir. Ya‘juj va Ma‘juj ingliz tiliga “Gog and Magog” deb tarjima qilinadi. Ya‘juj va Ma‘jujlar ingliz tiliga nima uchun bunday tarjima

¹ *B.Po‘latov, SamDCHTI*

qilinadi, ular ingliz tiliga qaysi tildan qachon kirib kelgan, xullas, ularning etimologiyasi haligacha noaniqligicha qolmoqda.

Ba'zan Iskandar Zulqarnayn bilan Aleksandr Makedonskiyning nomlarini chalkashtirish holatlari ko'p uchraydi. Aleksandr Makedonskiyning asl podshohlik ismi Makedoniya qiroli Aleksandr III bo'lib, Aleksandr nomi bilan tanilgan va uni sharqda Iskandar deb atashgan. Yunonistonlik Filipp II ning o'g'li Aleksandr Makedonskiy, ya'ni Iskandar tarixiy shaxs va uning inglizcha nomlanishi "Alexander the Great" deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq Iskandar Zulqarnayn nomi bilan boshqa tarixiy shaxs nomi tarjimalarda farqlanmay qolgan Iskandar Zulqarnayn haqida Qur'oni Karimda ham ta'kidlangan. Bu haqida Alloma Ibi Kasirning "Tafsir"ida quyidagilar keltirilgan: Azraqiy va boshqalar aytishadi: Qur'oni Karimda nomi keltirilgan Zulqarnayn Ibrohim alayhi salom davrlarida yashagan va u kishi bilan Baytullohni tavof qilgan.

A.Makedonskiyning Iskandar Zulqarnayn deb atalishiga ba'zi sabablarni keltirishimiz mumkin, "Zulqarnayn" arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ikki shoh egasi", "Qo'sha shoxli er" degan ma'nolarni anglatadi. Zulqarnaynning inglizcha talqini esa "Dhul Qarnayni" bo'ladi. "Dhul Qarnayni", ya'ni "Ikki shox egasi" deyilishiga sabab rimlik lashkarboshilarning ikki shoxli temir dubulg'asidan kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin.

Zulqarnayn haqida Qur'oni Karimning "Kahf" surasida shunday deyilgan: Alloh taolo Zulqarnaynga podshohlik, molu-davlat, aql-idrok bergan. Qolaversa, unga yer yuzini obod qilish, binokorlik va davlat ishlarini adolat bilan yurgizish ta'limini berilgan. Va yana, u haqida Abu Tufayl Ali roziyallohu anhu shunday degan ekan: "Zulqarnayn deyilishiga sabab, uning mashriq va mag'ribga yetgani, ya'ni quyosh chiqish va botish tomondagi o'lkalarni zabt etganidir.

Rum shohi "Faylaqus" - "Saddi Iskandariy" dostonida keltirilgan Rum shohi Faylaqusning ingliz tilida nomlanishi Filip II. Bu tarixiy shaxs yunonistonlik Iskandarning otasi bo'lib, u miloddan avvalgi 382-336-yillarda yashagan hamda miloddan avvalgi 359-yildan to umrining oxiriga qadar, ya'ni 336-yilga qadar Makedoniya qirolligini boshqargan. Ayni vaqtda Rum davlatini ingliz tiliga tarjima qilganimizda - "Macedonian kingdom" deb tarjima qilish maqsadga muvofikdir.

Naqumohis - Bu shaxsning ingliz tilidagi ismi Leonidas. Bu inson Iskandarga yoshligidan boshlab tarbiya berib, unga ko'p ilmlarni o'rgatgan. Bundan tashqari, Naqumohis, ya'ni Leonidas Iskandarga jang san'atidan saboq bergan.

Arastu - Bu inson ismining ingliz tilidagi tarjimasi Aristotile bo'lib, buyuk yunon faylasufi Platonning shogirdi bo'lgan. Aristotel Makedon hukmdori Faylaqusning taklifi bilan shahzoda Aleksandrga ustozlik qilgan va uning erishgan yutuqlarida uning xizmatlarining kattaligini alohida e'tirof etish lozim.

Balinos - Bu inson ham Iskandar Zulqarnaynga sodiq amaldorlardan biri bo'lib, nihoyatda oqil va dono inson bo'lgan va har doim Iskandarning yonida bo'lgan, Bu insonning ismi hozirgi kunda ingliz tilida nomlanishi biroz muommoli bo'lib kelmoqda. Sababi, Aleksandr Makedonskiyga Arastudan keyin ikkinchi ustoz sifatida Lysimachus tan olinadi. Aleksandrning bu ustoz ham Arastu singari doimo shohni o'zining aqlli fikrlari bilan qo'llab kelgan, "Saddi Iskandariy" dostonida nomi keltirilgan Balinos ham xuddi Lysimachus singari ta'riflangan. Shunga asoslanib aytadigan bo'lsak, Balinos bilan Lysimachus bir kishi bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Doro III - Forslarning eng qudratli shohlaridan biri bo'lib, bu nom ingliz tiliga Darius III deb tarjima qilinadi. Doro III miloddan avvalgi 380-330-yillarda yashagan, uning haqiqiy ismi Artashat, ya'ni Artashata bo'lib, u Doro (Durius III) degan nomni o'zining sulolasiga yangi nom sifatida qabul qiladi va o'zini va avlodlarining shu nom bilan atalishini istaydi, Doroni qadimgi greklar Kodamanu (Codomannus) deb atashgan.

Farang mulki - bu soʻzning maʼnosi fransuz erlari degan maʼnoni beradi va boʻ soʻzning ingliz tiliga tarjima qilganimizda The land of French degan maʼnoni beradi, lekin bu erda bir narsaga ahamiyat berishimiz kerak. Yaʼni, oʻsha paytdagi fransuz erlari bilan hozirgi oʻrni geografik jihatdan ham, albatta, biroq farq qilishi mumkin.

Qrim oʻlkasi - ushbu oʻlka nomini asl maʼnosi “boʻlak” degan maʼnoni anglatadi. Qrim oʻlkasi oʻsha paytdagi Bospor qirolligi tarkibiga kirgan. Ushbu qirollik hududi Qora dengiz boʻylab yoyilgan. Ushbu oʻlka nomini ingliz tiliga tarjima qilganimizda “The Crimea” boʻladi.

Andalus - soʻzi bosqinchi degan maʼnoni anglatadi. Ushbu soʻzning kelib chiqishi nemis qabilalaridan biri “vandallar” nomi bilan bogʻliq. Ular Ispaniyaning janubiy qismini bosib olgandan soʻng u erni Vandalusiya deb ataydilar. Arablar oʻsha joyi bosib olgach, uni Andalusiya deb ataydilar. Demak, “Andalus” soʻzi “Nemis” degan maʼnoni beradi. Ingliz tiliga tarjima qilganimizda “German” degan soʻzga toʻgʻri keladi.

Ajam - Bu soʻz arab tilidan olingan boʻlib, arab boʻlmagan, yaʼni begona degan maʼnoni beradi. Boʻ soʻz arablar tomonidan, asosan, forsiylarga nisbatan qoʻllanilgan. Bu soʻzning ingliz tilidagi tarjimasi ham huddi arab tilidagi singari Ajam deb yuritiladi

Kishvar - kishvar soʻzining maʼnosi oʻzbek tilida joy, oʻlka, mamlakat degan maʼnolarni beradi. Bu soʻzning ingliz tiliga Tarjima qilganimizda Place, country, location degan maʼnolarni beradi. Misol: “Hind kishvarida gʻaroyiblar koʻp”. There are a lot of marvels in India. [3]

Roy - Bu soʻzning oʻzbek tiliga tarjima qilganimizda roja, yaʼni shahzoda degan maʼnoni beradi. Buni ingliz tiliga tarjima qilganimizda Prince degan maʼnoni beradi. Misol: “Hind Royi Iskandardan qolishini soʻradi”. The prince of India asked Alexander to stay.

Toʻra – hujum qilish uchun moʻljallangan va toʻrt tomoni oʻralgan harbiy qurilma boʻlib, bu soʻzning ingliz tiliga tarjimasini bir soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Shuning uchun, “Toʻra” soʻzining ingliz tili dagi tarjimasini special military construction to attack deb olishni maʼqul topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- [1]. *Alexander of Macedon, 356-323 B.C.: a historical biography by Peter*
- [2]. *Conquest and empire: the reign of Alexander the Great by A. B. Bosworth Green*
- [3]. *HAMSA. Alisher Navoiy.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.*
- [4]. *Xamsa “Pyateritsa”. Alisher Navoi - T.: Yosh gvardiya, 1985.*
- [5]. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati.- A.Madvaliev tahriri.*
- [6]. *[http://www.ancient.eu com/Alexander the Great](http://www.ancient.eu.com/Alexander%20the%20Great)*
- [7]. *[http://en.wikipedia.org/wiki/Gates of Alexander](http://en.wikipedia.org/wiki/Gates_of_Alexander)*
- [8]. *[http: //muxlis.uz/uz/article/85/](http://muxlis.uz/uz/article/85/)*